



ZAMONAVIY KONTRASEPTSIYA USULLARI.

*Zarafshon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi tenikumi maxsus fan
o'qituvchisi*

Hayyotova Shaxlo.

E mail: hayyotovashahlo@gmail.com

Annotatsiya: Kontratseptsiya vositalari bir maqsad bilan yaratiladi - jinsiy aloqaning oqibatlaridan himoya qilish, istalmagan homiladorlik yoki zerikish kasalligi. XX asrning boshlarida dunyo faqat to'siqni kontratseptiv vositalardan foydalangan, bu spermani bachadonning shilliq qavatiga kiritilishiga bevosita to'sqinlik qilgan. Eng mashhur, qadimiy va ayni paytda mashhur zamonaviy kontratseptiv vositasi kondomdir. Italiyada ixtiro qilingan XVI asrda sifilizni saqlab qolish uchun kashf etilgan prezervativ, biroz o'zgartirilib, kontratseptsiya bo'yicha faqat erkak usulda bo'lish huquqini saqlab qoldi.

Tayanch so'zlar: Kontratseptsiya, xirurgik sterilizatsiya, prezervativ, spermitsidlar, gormonal, eyakulyatsiya, kalendar, sperma, spiral.

Kirish

Asrlar boshidan beri insoniyat qandaydir tarzda rejalashtirilmagan homiladorlik muammosini hal qilishga urinib kelmoqda. Dastlab, yagona va eng qulay usul, hozirda deyilganidek, kalendar usuli bo'lib, unda ayol qaysi kunlarda homilador bo'lish ehtimoli eng kam ekanligini "aniqlashi" mumkin edi. Ammo bu himoya usuli har doim ham ishlamaydi.

Ovulyatsiyani nazorat qilishni ta'minlaydigan harorat usuli kontratseptsiyaning kalendar usuliga o'xshaydi. Uni amalga oshirish usuli ertalab uyg'onganidan keyin rektal haroratni har kuni o'lchashdan iborat - agar u 37,2 va undan yuqori darajaga ko'tarilsa, kontratseptsiya uchun qulay davr keldi.



Ba'zi juftliklar vaginaga sperma tushmasligi va shu tariqa ayol tuxumini urug'lantirmaslik uchun jinsiy aloqani uzish usulidan foydalanadilar.

Istalmagan homiladorlikning oldini olishning bunday usullari ishonchsiz va kamdan-kam qo'llaniladi. Zamonaviy kontratsepsiya tamoyillari yuqori darajadagi himoyani ta'minlaydi.

Turmushga chiqqan ayollar 30 yoshlardan oshgandan so'ng homiladorlikdan himoyalaniish uchun turli xil kontraseptiv vositalarni qidira boshlashadi. Chunki bu davrga kelib ayol va er homiladorlikni rejali ravishda amalga oshirishadi. Hozirgi zamonda homiladorlikka qarshi vositalarning turlari juda ko'p, lekin ulardan qaysi birlari qulay va xavfsiz ? Bu haqida quyida batafsil yoritib o'tamiz.

Avvalo, kontrasepsiya – ya'ni homiladorlikka qarshi vositalar ichidan eng samarali usullari haqida ma'lumot beramiz:

1-o'rin. Xirurgik sterilizatsiya (jarrohlik yo'li bilan homiladorlikni cheklash) va gormonal kontrasepsiya;

2-o'rin. Bachadon ichi spirali;

3-o'rin. Prezervativ. Bu vosita bilan homiladorlikdan saqlanish darajasi 10 %ni tashkil qiladi;

4-o'rin. Spermitsidlar;

5-o'rin. Jinsiy aloqani eyakulyatsiya vaqtida to'xtatish.

Gormonal kontraseptiklar

Hozirgi kunda gormonal kontrsepsiya usuli rejalashtirilmagan homiladorlikdan saqlanishning eng qulay usulidir. Gormonal kontraseptik preparatlar bir jihatdan homiladorlikdan butunlay himoya qilsa, ikkinchi tomondan ayol organizmi qarishini sekinlashtiradi va klimaks davrini orqaroqqa cho'zadi. Asosiysi, preparatlarga bo'lgan qarshi ko'rsatmalar yo'qligi. Bunday kontrasepsiyadan turmushga chiqqan ayollar ko'p foydalanishadi. Ammo, ba'zi ayollarda homilador bo'lishga kuchli moyillik bo'lgani sababli gormonal



preparatlar yordam bera olmasligi mumkin. Demak, gormonal kontraseptik preparatlarni qo'llashdan avval ayrim holatlarni hisobga olish talab etiladi: ayol yoshi 30 dan oshgan bo'lishi kerak, preparatlar faqatgina shifokor-ginekolog tomonidan buyuriladi, uni buyurish uchun maxsus tekshiruvlardan o'tish kerak. Gormonal kontraseptiv vosita turlari:

Bachadon ichi spirali

Kontrasepsiyaning bu turidan tug'gan ayollar ko'proq foydalanishadi, ular homiladorlikni yaqin yillar ichida rejalashtirish niyatida bo'lmaganlar uchun qulay. Bachadon ichi spirali hayz davrida shifokor tomonidan joylashtiriladi, agar barcha holatlar normada ketsa, spiral 3-5 yil davomida bachadon ichida qoladi. Uni joylashtirishda jinsiy yo'llarda kasalliklar yo'qligi, qinning tozaligi va boshqa turdagi har qanday kasalliklar e'tiborga olinadi.

Bachadon ichi spirali mexanik va gormonal turlarga bo'linadi. Mexanik spiral – bu oddiygina yot (himoya) jism, u bachadon bo'yinchasida joylashib homilador bo'lishdan himoya qiladi. Gormonal spirallarning 2 xil ta'sir effekti bor: yot (himoya) jism va gormonal modda. Gormonal spiralning davolovchi ta'siri ham bor, masalan bachadon miomasi va endometriozda gormonal moddalar davolovchi ta'sir ham ko'rsatadi.

Mexanik spiralning kamchiliklari hayz ko'rish davomida qon ketishini kuchaytirishi mumkin. Spiral joylangan vaqtlarda ginekolog ko'rigidan daoimiy o'tib turish kerak.

Gormonal spirallarning kamchiliklari mexanik spirallardan ancha qimmat, hatto 5-7 marotaba. Gormonlarga organizm moslashishida biroz muammolar tug'dirishi mumkin, qindan ajralamalar kelishi kuzatiladi.



Prezervativ

Mexanik kontrasepsiyaning eng ko‘p tarqalgan va qulay usulidir. Prezervativdan ko‘proq yosh onalar foydalanishadi. Prezervativ tayyorlangan materialiga qarab farqlanadi. Ular maksimal darajada ishonchli va mustahkam bo‘lishi kerak. Jinsiy aloqada sezgi hissini oshirish uchun prezervativlar tashqi tomondan g‘adir budurliklarga ega bo‘ladi.

Kamchiligi ayrim odamlarda lateksga bo‘lgan allergiyalar. Jinsiy aloqa vaqtida diskomfort sezish, ayniqsa bunga erkaklar ko‘proq shikoyat qilishadi

Spermitsidlar

Bunday kontraseptiv vositalarning gormonal preparatlardan farqi, ularni ginekolog nazoratisiz ham qabul qilsa bo‘ladi. Spermitsidlar kontrasepsiyaning kimyoviy turidir – maxsus shamchalar, krem ko‘rinishida bo‘ladi. Preparatlarning shakli turli xilda bo‘ladi, lekin ta’sir mexanizmi bir xil: spermatozoidlarni bloklash. Agar qo‘llashda kamchiliklar bo‘lmasa, jinsiy aloqadan 15 daqiqa oldin qinga foydalanilsa, homiladorlikdan butunlay saqlaydi. Bundan tashqari spermitsidlar antibakterial xususiyatlarga ham ega, ular jinsiy a’zolari ayrim yuqumli kasalliklardan ham ximoya qiladi.

Kamchiliklari spermitsidlarning homiladorlikdan himoya qilish darajasi 80 % ni tashkil etadi, gormonal preparatlardan ko‘ra kamroq. Bundan tashqari diskomfort hissini sezish (ayolda ham, erkakda ham). Spermitsidlar shilliq qavatni qo‘zg‘atib hatto allergiyagacha olib kelishi mumkin. albatta, hammaga ham yoqmaydi, jisniy aloqa vaqtida qindan ko‘pik kelishi.

Jinsiy aloqani to‘xtatish

30 yoshdan oshganda jinsiy aloqani to‘xtatish yo‘li bilan homiladorlikdan saqlanish eng kam natija beradigan usuldir. Chunki erkak kishi eyakulyatsiya



boshlanayotganini sezmaydi, erkak uchun “hali vaqt bor” lekin, “kech bo‘ldi” kabi holat uchraydi.

Jarrohlik yo‘li bilan homiladorlikni cheklash

Agar ayol kishi 35 yoshdan oshgan bo‘lsa, unda eng kamida 2 ta farzand bo‘lsa, u homilador bo‘lishni rejalashtirishni istamasa ushbu usuldan foydalansa bo‘ladi. Jarrohlik amaliyotida: bachadon nayini laproskopiya yordamida bog‘lab qo‘yish, uni o‘tkazuvchanlik xususiyatini yo‘qotishga asoslangan. Bu esa homilador bo‘lish butunlay to‘xtadi degani. Jarrohlik amaliyoti qaytmas jarayondir, agar ayol yana farzand ko‘rishni istasa, EKO usulidan yoki bachadon nayini qayta ochish amaliyotlarini bajariadi.

Xulosa

Zamonaviy kontratseptivlar nafaqat istalmagan homiladorlik va jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklardan himoya qilish, balki inson salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaslik uchun sifatini oshirib, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya ta‘sirlarni bartaraf etib, doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Mutaxassislar homiladorlik va jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklardan himoya qilishda ham, OIVdan himoya qilishda ham bunday dorilarni ishonchli qilishga intilmoqda. Mutaxassislar ayollar dori vositalaridan tashqari erkaklar uchun mahsulotlarni ham ishlab chiqmoqdalar, masalan, uzoq vaqt davomida (2 oygacha) rejalashtirilmagan homiladorlik ehtimoli haqida tashvishlanmaslik imkonini beruvchi gormonlar asosidagi inyeksiyalar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar:

1.Ya.N. Allayorov.”Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik parvarishi”

Toshkent 2016



2.M.A.Fozilbekova. X.S.Zaynitdinova. N.A.Nurmatova “Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi” Toshkent, 2007

3.M.F. Ziyaeva, G.Mavlonova “Ginekologiya” Toshkent, 2007.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1.Akusherstvo. Uchebnoe posobie dlya obucheniya akusher-ginekologov, neonatologov akusherok i meditsinskix sestyor rodilnixstatsionarov.MZRUz

2.Ya.N.Allayorov, D.O‘.Yusupova, F.Q.Asqarova “Akusherlikdan amaliy

3. Ya.N.Allayorov “Reproduktiv salomatlik va kontraseptiv texnologiya” Toshkent , “Istiqlol” nashriyoti 2005 yil

4. V.I.Bodyajina, “Akusherlik” Meditsina, 2000

Internet saytlar:

www:uzssgzt.uz,

www: med.uz.,

www:markaz.uz,

lex.uz, http://